



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

¹Axmedov Furkat Kuldashevich.,

²Kulboyev Nodirjon Salaydinovich.,

³Qushmurodov Begzod Abduraimovich

¹JDPU jismoniy madaniyat fakulteti dekani, p.f.n.professor.,

²JDPU jismoniy madaniyat fakulteti v.b dotsent

³JDPU jismoniy madaniyat fakulteti dekan o`rinbosari

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY TA'LIMNI YANADA RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrda jismoniy ta'lim berishning zarurati va ahamiyati yuzasidan tahliliy ilmiy ma'lumotlar berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, sport, milliy sport turlari, jismoniy ta'lim, jismoniy faollik, badan tarbiya, jismoniy tarbiya va sport tizimi,

Ключевые слова: физическая культура, спорт, национальные виды спорта, физическая культура, двигательная активность, физическое воспитание, система физического воспитания и спорта.

Keywords: physical culture, sport, national sports, physical education, physical activity, physical education, physical education and sports system.

Bugun dunyo xar tomonlama (ilm ,fan, texnika, v.b)rivojlanish bilan birga insoniyatning umumiy muommolari xam ortib bormokda. Ekologiyaning buzulishi ,global iklim uzgarishlari, usimliklar va xayvonot dunyosining xavf ostida kolishi, ichimlik suvi tankisiligining ortishi , tabiiy resurslarning kamayib borishi bular barchasi bugungi kunda insoniyat oldidagi global muommolar sifatida karalmokda. Yana shunday muommolardan biri bu inson salomatligi bilan boglik muommo sanaladi. Jamiyatda fan texnikaning rivojlanishi , ishlab chikarishning avtomatlashtirilishi insoniyatda kam xarakatlilikni keltirib chikordi. Kamxarakatlilik natijada kasallik turlari kupayishi bilan birgalikda, mavjud kasallik turlarining yosharib



borayotgaligi yuzasidan JSST tegishli malumotlarni takdim etib bormokda. Inson salomatligini taminlashning asosiy vositalaridan biri bu jismoniy xarakatchanlikni oshirishdan iborat. Jismoniy faollik albatta turli kurinishdagi maxsus jismoniy mashklar(soglomlashtiruvchi, umumrivojlantiruvchi, maxsus, sport mashklari v.b.) bilan shugullanish orkali amalga oshiriladi. Zaruriy jismoniy mashklar bilan shugullanish uchun kishi yetarlicha jismoniy talimga ega bulishi talab etiladi. Shuning uchun xam jismoniy talimni doimiy ravishda takomillashtirish uni zamon talablari asosida rivojlantirib borish zarur.

Jismoniy tarbiya va sport, jismoniy ta'lim ayniqsa milliy jismoniy ta'lim ko'p jihatdan milliy qadriyatlarni saqlash, ulardan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Tarix chig'iriklaridan o'tib, sayqallanib bizgacha yetib kelgan o'zbek xalqining milliy sport turlari va xalq o'yinlari yosh avlodni mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gummannizm g'oyalarini mujassam etgan holda jismonan va manan barkamol qilib tarbiyalashda hamda xalqimizni genofondini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etgan.¹ Zero, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport ham globallashti va umumiylikka ega bo'ldi. Dunyo sporti olamida turli millat vakillarining milliy sport turlaridan tashkil topgan jahon sport tashkilotlari (XOQ, sport assotsiatsiyalari va federatsiyalari) tomonidan turli xalqaro miqiyosdagi sport musoboqalari tashkil etiladi. Agar jahon sporti olamidagi xususan olimpiada o'yinlari dasturidan o'rin olgan sport turlarini qaysi millat va mamlakat vakillariga taalluqli ekanligi tahlil etilganda. Shubhasiz, asosiy sport turlari har tomonlama rivojlangan mamlakatlar vakillariga tegishli. Demak, barcha sohalardagi kabi sportdagi globallashtiruv jarayoniga aynan mana shu rivojlangan mamlakatlar jiddiy ta'sir etmoqda. Bu esa o'z navbatida kichik millatlar va mamlakatlarning jismoniy madaniyati va milliy sport turlarini asta-sekinlik bilan yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashtiruv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'yimoqda."

Ana shunday vazifalardan asosiysi bu yoshlar tarbiyasidir. Har tomonlama mukammal tarbiyalangan zamonaviy bilimlarga ega yoshlarga milliy qadriyatlarni saqlab qolish va dunyo hamjamiyatida mamlakatimiz va millatimizni o'z o'rniga ega bo'lishni ta'minlashga qodir bo'la oladilar. Bunday yoshlarni tarbiyalashda albatta bugun sifatli ta'limni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan qaraganda 2023-yilni mamlakatimizda "Sifatli ta'lim va insonga e'tibor yili" deb e'lon qilinishi va unga oid davlat dasturini qabul qilinishi ham har jihatdan to'g'ri va oldimizga qo'yilgan vazifani bajarishga xizmat qiladi. Yoshlar tarbiyasining asosiy vositalaridan biri bu jismoniy tarbiya va sport hisoblanadi. Zero, jismoniy tarbiya sport vositasida yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash o'ta samarali kechishi allaqachon o'zining so'zsiz ilmiy isbotini topgan. Yuqorida aytilganidek tushunchalar va ularni o'z o'rnida ishlatilishi o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Shuni inobatga olgan

¹ . O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari ensiklopediyasi. Toshkent. 2022 y. 375 bet.



holda, bugungi kunda mamlakatimizda sohaga oid (jismoniy tarbiya va sportga) qo'llaniladigan atamalarning asosiylarida to'xtalib o'tamiz. Jumladan jismoniy madaniyat, jismoniy ta'lim atamalarining kelib chiqish tarixi va tushunchalarini muhokama qilamiz.

Ko'pgina tegishli adabiyotlarda (I.S.Barchukov o'quv qo'llanma "KnoRus" 2021-y) berilishicha, jismoniy madaniyat atamasi 19-asr oxirlarida dastlab Angliyada paydo bo'lgan va uning muallifi professonal sportchi Yevgeniy Sandov bo'lib, u dastlab Londonda "Physical Culture" (jismoniy madaniyat) maktabini ochgan. Biroq bu atama Angliyada ommaviylashmadi aksincha mamlakat hayotiga "jismoniy ta'lim" tushunchasi kirib keldi. AQSh, Germaniya va Fransiyada "jismoniy madaniyat" tushunchasiga jismoniy ta'lim, jismoniy mashqlanish, jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanish atamalari ko'rinishida paydo bo'ldi. Rossiyada jismoniy madaniyat deganda, jismoniy mashqlarning alohida bir tizimi yoki jismoniy qadriyat sifatida, tana tuzulishini takomillashtirish, chiroyli qilish tushunchasi bo'lib kirib keldi. Rossiya olimlarining qayd etishlaricha "jismoniy madaniyat" tushunchasi birinchi marta 1919-yildagi Vseobuch syezdida qo'llanilgan. Ba'zi olimlarning ta'kidlashlaricha, 1924-yilda Butunittifoq jismoniy madaniyat Kengashida qo'llanilgan. O'sha vaqtda aslida "sportizatsiya nasileniya" aholini sportga jalb etish, "Fizicheskoe ozdorovlenie"- jismoniy sog'lomlashtirish atamalari qo'llanilgan. Keyinchalik sobiq SSSRda fizicheskaya kultura tushunchasi ommaviylashdi va boshqa ittifoqdosh respublikalarning millat vakillari o'z tillariga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib foydalanishdi. Jumladan O'zbekistonda ham jismoniy madaniyat atamasi keng qo'llaniladigan bo'ldi. Bu atama hozirgacha juda faol qo'llaniladi. Unda savol tug'uladi, ungacha o'zbek tilida bu faoliyat yoki tushuncha qanday atalgan? Tegishli adabiyotlarni o'rganilganda bizda o'zbek tilida bungacha "badan tarbiya" atamasi keng qo'llanilgan. Badan tarbiyasiga oid yetarlicha ilmiy adabiyotlar ham yaratilgan.²

Bugungi kunda biz faoliyatimizda asosan jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat atamalari qo'llaniladi. Eng kam qo'llaniladigan atama bu jismoniy ta'lim atamasi hisoblanadi. Biroq jismoniy ta'lim bu faoliyatimizning asosiy qismini tashkil etishi bilan aqamiyatli hisoblanadi.

Jismoniy ta'lim bu shaxsning turmush tarzini maqsadga muvofiq tashkil etishga ijobiy tas'sir etishga qaratilgan jismoniy harakat, salomatlik va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bilimlar majmuasidir. Jismoniy ta'lim bevosita shaxsning axloqiy, kommunikativ, kreativ, tanqidiy fikrlash va estetik qarashlarini ham rivojlantirishga ta'sirga ega hisoblanadi.

Yevropa va AQSh shuningdek, Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida jismoniy talim inson hayotining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Masalan, AQShda (Shape America) umume'tirof etilgan dasturida jismoniy tarbiya AQSh fuqarolarining turmush tarzining ajralmas qismi ekanligi belgilangan.

Mazkur talablar mazmuni jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi bilimlar va uning ahamiyatini avvalo insonlarga tushuntirib berish, jismoniy tarbiya to'g'risidagi bilimlarni yetkazib berishni nazarada tutadi. Buning mazmuni bizning fikrimizcha bu

² Axmedov F.K. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. Darslik. 2021 y. Toshkent. 317 bet.



faoliyat shaxsni avvalo “jismoniy ta’lim” bilan qurollantirish deb, hisoblash mumkin. Yuqoridagi Dasturning K12-1 bandida “jismoniy savodli shaxs” tushunchasi kiritilganligi diqqatga sazovordir.

Germaniyada ham jismoniy tarbiya muhim ahamiyatga egaligi nemis olimlarining tadqiqot ishlarida qayd etilgan. Ba’zi olimlarning tajriba ishlari natijalarida Germaniyada jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa turlariga uzviy bog‘langanligi ko‘rsatib o‘tilgan

Unga ko‘ra, Germaniyada jismoniy tarbiya avvalo maktab va bog‘chalarda bolalar ongiga shunchaki o‘yin yoki harakat emas, balki turmush tarzining ajralmas qismi sifatida singdiriladi. Shuning natijasi bo‘lsa kerak, Jahon sog‘likni saqlash tashkiloti (JSST) ning so‘nggi ma‘lumotlariga ko‘ra, Germaniya dunyoda aholisi jismoniy faollik bilan shug‘ullanadigan davlatlar orasida eng yuqori o‘rinda turadi.

Bu borada Xitoy tajribasi ham o‘ziga xos hisoblanadi. Xitoy jismoniy tarbiyasi maktabgacha ta’lim, maktab va Oliy ta’lim bosqichi bilan uzviy bog‘langan. Bir qator Xitoy olimlarining jismoniy tarbiyaga doir qarashlari va ilmiy-tadqiqot ishlariga ko‘ra Xitoy milliy jismoniy tarbiya dasturi avvalo shaxs rivojlanishiga qaratilgan. Bu faoliyat qandaydir mashqlar majmuasi yoki jismoniy harakatlardan iborat bo‘lmasdan, avvalo insonning har tomonlama rivojlanishini nazarda tutuvchi vosita hisoblanadi.³

Jahon Sog‘likni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning 2022-yilgi dunyo aholisining jismoniy faollik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yillik hisoboti alohida diqqatga sazovordir. Ushbu manbaalarda qayd etilishicha jismoniy tarbiya orqali insonning jismoniy harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish mumkin. Bu bir paytning o‘zida turli kasalliklarning oldini olish bilan birga shaxsning psixologik va axloqiy sifatleri shuningdek, fikrlash, o‘rganish va mulohaza yuritish qobiliyatini oshirishi keltirib o‘tilgan.⁴

JSSTning 2030 yilgacha jismoniy faollik dasturi va turli yillardagi hisobotlarida dunyo miqyosida jismoniy faollikni oshirish, insonlarga jismoniy tarbiyaning ahamiyati va zaruratini tushuntirib berish kerakligi ko‘rsatilgan. Bu vazifa bevosita insonlarga “jismoniy ta’lim” berishni nazarda tutadi, albatta. Demak avvalo jismoniy ta’lim, keyin jismoniy tarbiya va sport va sohaning boshqa faoliyat turlari amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa va tavsiyalar:

Bugungi glaballashuv jarayonida ham “jismoniy tarbiya - tarbiya turlarining eng avvali va eng afzali” bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiyani amalga oshirishning asosiy omili bo‘lgan jismoniy ta’limni doimiy ravishda rivojlantirib borish zarurati o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Bugungi zamonaviy davrida jismoniy tarbiya sportni yanada ommaviylashtirish va undan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanish uchun jismoniy ta’limni yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

³https://www.researchgate.net/publication/351065701_A_Historical_Review_of_Physical_Education_in_China_1949-2020).

⁴ <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/physical-activity>



Ta'lim tizimining jismoniy ta'lim o'quv dasturlarini, ilmiy uslubiy ta'minotini zamonaviy, milliy va xalqaro tajribalar asosidagi yangi bilimlar bilan boyitish zarurati mavjud maktabgacha ta'limdan boshlab, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida jismoniy ta'limning uzviy va uzluksizligini ta'minlashga erishish zarur.

Jismoniy ta'limni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tamoyillarga rioya qilgan holda ish yuritish zarur.

Barcha ta'lim tashkilotlarida (MTT, UUTM, PT, OTM, MOQTda) jismoniy tarbiyaga emas jismoniy ta'lim berishga asosiy e'tibor qaratish zarur. Vaholanki, o'quv tashkilotlarida o'quv jarayoni uchun ajratilgan soatlar qanchalik bo'lishidan qat'i nazar o'quvchilarni jismoniy faolligini ta'minlash uchun yetarli bo'lmaydi (sportga yo'naltirilgan ta'lim tashkilotlaridan tashqari). Chunki yetarlicha jismoniy ta'limga ega bo'lgan shaxs hayoti davomida jismoniy tarbiyaning tamoyillari, talablarini to'liq his etadi va ularga amal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T. "O'zbekiston". 1992-yil. 15-16 b.
2. Axmedov F.K. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. Darslik. 2021 y. Toshkent. 317 bet.
3. Nazarov K. Bilish falsafasi –Toshkent. 2005 y. 347 bet.
4. Uralov D, B. Karimov B. Glaballashuv va global mafkura tushunchasi. Ilmiy maqola. www.oriens.uz.
5. O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari ensiklopediyasi. Toshkent. 2022 y. 375 bet.

Internet saytlari

1. https://www.researchgate.net/publication/351065701_A_Historical_Review_of_Physical_Education_in_China_1949-2020).
2. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/physical-activity>.